

O'qish savodxonligi

II qism

3



UO'K: 808.545(075.3)

BBK 74.202.5ya72

T-61

Aydarova U. B., Azizova N. K, Toirova M. E.

O'qish savodxonligi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik.
II qism. / U. Aydarova, N. Azizova, M. Toirova. – Toshkent: "Novda Edutainment",
2023. – 80 b.

Taqrizchilar:

Sh. Y. Muslimova – Toshkent shahar 328-umumiy o'rta ta'lim maktabining oliy toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi;

M. M. Umarova – Toshkent shahar 222-umumiy o'rta ta'lim maktabining birinchi toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

Shartli belgilar:



**Savollarga
javob bering**



**Guruh bo'lib
ishlang**



**Diqqat bilan
o'qing**



Bu qiziq



Tinglang



**Topshiriqni
bajaring**



Uyga vazifa



Izohli lug'at

ISBN 978-9943-9704-5-8

© U. B. Aydarova, N. K. Azizova, M. E. Toirova
© "Novda Edutainment", 2023

Aziz o'quvchi!

Hayotimizni badiiy adabiyotsiz tasavvur qilish qiyin. Badiiy asarlar inson qalbiga ezgulik urug'larini sochadi, unda yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, ezgulik va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni shakllantiradi. Ertak, hikoya, topishmoq, she'r, maqol, tez aytishlar hayotimizning bir bo'lagidir. Ular bizning dunyoqarashimizni kengaytiradi, nutqimizni rivojlantiradi.

Mazkur kitobdan o'zbek va jahon xalq ertaklari, she'rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar o'rin olgan.

Qadrlil o'quvchi! Mehr-oqibat, do'stlik, sadoqat singari go'zal insoniy fazilatlarga chorlovchi ushbu kitob sizlarga manzur bo'ladi, degan umiddamiz.

Sizga omad tilaymiz!





I bo'lim.
**Ish quroling soz bo'lsa,
mashaqqating oz bo'lur**





Nuqtalar o'rniga tushirib qoldirilgan so'zni qo'yib, she'rni o'qing.

**Ko'chamizda o'zing bor ... , ... ,
Uchta chaqmoq ko'zing bor ... ,**



Bolalar yozuvchisi Nasiba Erxonova 1981-yilda Samarqand viloyati Payariq tumanida ziyoli oilasida tug'ilgan. Uning bolalar uchun yozgan hikoya, ertak va she'rlari respublika gazeta va jurnallarida e'lon qilingan.

Muallifning "Matematika qasriga sayohat", "Ibrat yog'dusi" kitoblari chop etilgan.





Arazchi svetofor

Nasiba Erxonova

Katta bir shahardagi chorrahada uchta svetofor piyodalar va mashinalarning harakatini tartibga solib turarkan. Ular juda ko'p yillar ko'zlarini ochaverib-yumaverib, charchab ketishibdi. Aksiga olib, chorrahadagi mashinalar kimo'zarga tez yurib, hatto svetofor ustunlarini urib ketaveribdi. Jahli chiqqan piyodalar esa svetoforning buyruqlarini pisand qilmay, qizil chiroqda ham o'tib ketaveribdilar.

Bir kuni uch og'ayni o'zaro gaplashib, bunday nohaqliklardan charchab ketganlarini aytib, dam olishga qaror qilibdilar.

Ertalab odamlar ishga borayotganda svetoforning ko'zlari o'chib-yonishini kutibdilar, mashinalar bir to'xtab o'ta boshlabdi. Lekin svetoforning chiroqlari



almashib yonmabdi. Shunda chorrahada tartibsizlik boshlanibdi. Mashinalar va odamlar bir-birlarini kutmay, bir-birlariga yo'l bermay harakatlanishibdi. Natijada tirbandlik paydo bo'libdi. Hattoki jahli tez haydovchilar sekinroq yurayotgan mashinalarga borib urilibdi. Atrofiga qaramasdan o'tayotgan piyodalarni esa turtib ketishibdi. Shunda odamlar bunday noqulaylikdan qutulish yo'llarini izlabdilar. Falokatlarning oldini olish uchun muhandislarni yordamga chaqiribdilar. Texnik ustalar bor mahoratini ishga solib, svetoforlarni sozlabdilar.

Yo'lda piyoda va mashinalar yana tartib bilan, bir-birlariga yo'l bergan holda harakatlana boshlabdi. Shunda hamma svetoforlarga rahmat aytibdi. Ularning yo'lning bir chekkasida, indamasdan odamlarga uzzukun yordami tegayotganini barcha his qilibdi.





1. Ucha svetofor nimadan charchagan edi?
2. Nima uchun svetoforlar arazladi?
3. Haydovchi va piyodalarning chorradagi harakatlarini qanday baholaysiz?
4. Siz nima deb o'ylaysiz, svetofor arazlab to'g'ri ish qildimi?
5. Shu svetoforlar turgan chorradada siz bo'lib qolsangiz, qanday harakatlar edingiz?



Matnni qismlarga bo'ling. Har bir qismi uchun alohida sarlavha qo'ying.

Hikoya matnidan **nohaqlik, noqulaylik, uzzukun** so'zlari ishtirok etgan gaplarni topib o'qing. Bu so'zlarni ma'nodoshlari bilan o'zgartirib, gaplarni qayta o'qing.



Topishmoqlarning javobini toping.

**Yo'lni kesib o'tishda
Yordam berar yo'l-yo'l chiziq.**

Mundarija

I bo'lim.

Ish quoling soz bo'lsa, mashaqqating oz bo'lur	4
1-mavzu. Arazchi svetofor. <i>Nasiba Erxonova</i>	6
2-mavzu. Chin do'st. <i>Nasiba Erxonova</i>	11
3-mavzu. Tez yordam yordamga shay. <i>Zuhra Ro'ziyeva</i>	18
4-mavzu. Yo'l harakati qoidalariga amal qiling! (<i>Audiomatn</i>).....	22
5-mavzu. Mehnat quollari nima deydi? <i>Ne'mat Dushayev</i>	28
6-mavzu. Igna. <i>Hakim Nazir</i>	33
7-mavzu. Soat. <i>Zahro Hasanova</i>	38
8-mavzu. Bo'lim yuzasidan takrorlash.....	41

II bo'lim.

Ey yoqimtoy qish, qoringga olqish	42
9-mavzu. Qish tashbehlari. <i>Dilshod Rajab</i>	44
10-mavzu. Enajonim ertak aytadi. <i>Xudoyberdi To'xtaboyev</i>	48
11-mavzu. O'lkamizda qish (<i>Audiomatn</i>).....	53
12-mavzu. Qish qori bilan. <i>Po'lat Mo'min</i>	57
13-mavzu. Yaxshilik izlagan bola.....	62
14-mavzu. Do'stlik yo'lagi. <i>Rivoyat</i>	67
15-mavzu. Xush kelibsan, Yangi yil! <i>Abdulla Oripov</i>	71
16-mavzu. Bo'lim yuzasidan takrorlash.....	75

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com veb-sayti orqali o'zingiz uchun kerakli ma'lumotlarni yuklab oling.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga

murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi

3-sinf o'qish savodxonligi II qism kitobini to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.

Telegram kanalimiz:

[@Maktablar_uchun_hujjatlar](https://t.me/@Maktablar_uchun_hujjatlar)



DIQQAT!!!

Bu hujjatni hech kimga tarqatmaslik sharti bilan olishingiz mumkin.

Sizga bu **OMONAT qilib beriladi.**

To'liq holda olganingizdan so'ng:

Faqat o'zingiz uchun foydalaning.

Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.

Internet veb-saytlarga joylamang.

Telegram orqali kanal va gruppalarga tarqatmang.

OMONATGA HIYONAT

QILMANG.